

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**5111700-Boshlang`ich ta`lim va sport tarbiyaviy ish
yo`nalishi, 3-bosqich, 306-guruh talabasi
Abdurahimova Gulshoda Azimjon qizining**

KURS ISHI

**Mavzu: Boshlang`ich sinf o`qish darslarida o`quvchilarni
kasbga yo`naltirish.**

Ilmiy rahbar:

f.f.n., dotsent M.Hamidova

Namangan-2014-yil

Mavzu: Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarni kasb yo'naltirish.

Reja:

Kirish.

1. «Mehnat-ba't keltirar» bo'limiga kirgan har xil janrdagi asarlar va ularning tavsifi.
2. "Mehnat-baxt keltirar" bo'limini o'rganish o'rganish orqali o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish darslari va ularni tashkil etish.
3. "Mehnat-baxt keltirar" bo'limini o'rganish o'rganish orqali o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida» gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da ta'limni tubdan isloh qilishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib berilgan. Unda «Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi», - deb ko'rsatilgan. Shuningdek, dasturda qo'yilgan maqsadga erishish yo'llari ham ko'rsatilgan. Ta'lim berish ilg'or pedagogik texnologiyalarning zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish va o'quv tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash umumiy o'rta ta'limning asosiy shartlaridan biri sifatida belgilangan. Darhaqiqat, ilg'or pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Davlat ta'lim standartlari talabi ham bu sohada katta ahamiyat kasb etadi. Chunki Davlat ta'lim standartlari Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablari asosida tuzilgan bo'lib, unda mutaxassislar, ya'ni yoshlarni yetuk inson sifatida tayyorlash umumjahon talablari asos qilib olingan. Standart talablari asosida ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiya talablariga asoslanishi, ta'limni jahon taraqqiyoti darajasida tashkil qilish imkoniyati mavjud.

Shundan kelib chiqqan holda boshlang'ich sinf o'qish darslarida har xil janrdagi asarlarning inson ruhiyatiga nozik tovlanish va hissiyotidagi chigal jarayonlarni ilg'ash hamda aks ettirishga xizmat qilishi, shinakam badiiy asar insonni to'lqinlantiradigan, hayajonga soladigan o'y-fikrlar, orzu-umidlar, sezgi va kechinmalarni iyodalashi, dunyoda yashayotgan odamlar bir-birlariga o'xshamaganlaridek, ularning qalb kechinmalari ham takrorlanmasligi masalasi o'quvchilarning diqqatini e'tiborga tortishi tabiiydir. O'qish darsligida berilgan har xil janrdagi asarlar - inson ruhiy holatlari mahorat bilan aks ettirilgan durdonalarga boy. Ular hozirgi avlod ruhiyatida, qalbida ham hayajon uyg'ota olishi bilan ularning ma'naviy takomiliga hissa qo'shadi. Muhimi, ular kishiga faqat ma'rifat beribgina qolmay, uning badiiy didi, takomiliga, ma'naviy kamolotiga ham xizmat qiladi.

Biz ana shunday o'zining maftunkorligi bilan bolalar, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining katta qiziqishiga sabab bo'lgan har xil janrdagi asarlar, xususan, 2-sinf o'qish darslarida "Mehnat-baxt keltirar" bo'limini o'rganish orqali o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish xususida fikr yuritmoqchimiz. Bu mavzu boshlang'ich sinf o'qish darslari misolida o'rganilmaganligi, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun ushbu mavzuni olib borish jarayonida buning muhim ahamiyat kasb etishini e'tiborga olgan holda «2-sinf o'qish darslarida "Mehnat-baxt keltirar" bo'limini o'rganish orqali o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish» kurs ishimizga asos qilib oldik. Zero, yurtboshimiz I.A.Karimov «Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi» deb ta'kidlab o'tganlaridek, bo'lim materiali orqali o'quvchilarga nafqat ta'lim, tarbiya berish, balki ularni kasbga yo'naltirish, kelajakda jamiyatning munosib farzandi bo'lib yetishishlariga zamin yaratish har bir pedagog oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Maktab DTS da «Mehnat-baxt keltirar» bo'limini o'rganish uchun 10 soat vaqt ajratilgan. Mazkur bo'limdagi matnlar o'quvchilarda mehnat qilishga, hunar o'rganishga ixlos qo'yish kabi xislatlarni tarbiyalaydi. O'quvchilarga mehnatkash ota-bobolarimizning mehnatdan baxt-saodat topganliklari, o'lkamizda bog'-rog'lar, ekinzorlar yaratganliklari, ularning faol mehnatlari haqidagi lavhalar tavsiya etiladi. Ular mehnat haqidagi hikmatli o'gitlar, maqol va masalalar mazmuni bilan tanishtiriladi.

O'quvchilarga mehnat tufayli to'q-farovon yashash mukinligi, bolalarning kattalarga yordami, ular oldida farzandlik burchini bajarishlari, orasta va saranjom bo'lishlari, oila iqtisodi, tejamli bo'lish haqida tushunchalar beriladi.

2-sinf o'qish darsligida «Mehnat-baxt keltirar» bo'limi orqali o'quvchilar Anvar Obidjonning «Odam bo'laman» she'ri, she'rga mos tarzda topishmoqlar, Ollobergan Po'latning «Hunar-bebaho boylik» she'ri, buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniyning «Har bir kishining qadr-qimmati o'z ishini qoyil qilib bajarishidadir» hikmatli so'zi, Alisa Lavruxinaning «Mening do'stim Kompyusha» hikoyasi, Yusuf Xos Hojibning hikoyadan so'ng «Bilim ham hunar ol, qadrla uni, bilim-la hunar ham qadrlar seni» hikmatli so'zi

berilgan. shuningdek, Obid Rasulning «Non aziz» sheʼri hamda «Uch oʻgʻil» ertagi, topishmoqlar berilgan.

Bundan koʻrinadiki, mazkur boʻlimda sheʼr, hikoya, ertak, topishmoq, hikmatli soʻzlar janrlaridagi asarlar berilgan boʻlib, har birini oʻrganishda oʻziga xos tarzda yondashib darsni olib borish maqsadga muvofiqdir.

Shuning uchun biz bu oʻrinda bu janrlarni oʻrganish uslubiyotga qisqacha toʻxtalib oʻtishni oʻrinli deb bildik.

Xalq ogʻzaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib oʻqilishining sabablaridan biri ertak tilining taʼsirchanligi, oʻtkirligi, maʼnodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning koʻpchiligida real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qoʻshilib ketadi.

Ertakning oʻtkir maroqli syujeti, voqea rivojidadagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning gʻoyaviy yoʻnalishi, unda ezgulik kuchining - yaxshilikning doimo gʻalaba qilishi bolalarni oʻziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil soʻz va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining taʼsirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarlidir. Ertakda qatnashuvchilar koʻpincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi boʻlgan yovuz, baxil, ochkoʻz obrazlarga boʻlinadi.

Ertakning pedagogik qiymati shundan iboratki, oʻquvchilar unda toʻgʻrilik, halollik gʻalaba qilganidan, kambagʻal kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, yaʼni yaxshilik, ezgulik roʻyobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday boʻlishini istaydilar.

Ertak bolalarda qahramonlarning xatti-harakatini muhokama qilib, baholash koʻnikmasini oʻstirishi bilan birga yaxshilikning doimo gʻalaba qozonishiga ishonch uygʻotadi. Oʻquvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida *«Kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? (yoki yoqmadi?) Nima uchun?»*, *«... nima uchun jazolandi? (yoki ragʻbatlantirildi?)»*, *«Nima uchun ertakdagi baʼzi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi? (yoki baʼzilaridan yuz oʻgiradi?)»* kabi

savollarga javob topish jarayonida mushohada qiladilar, muhokama qilib, xulosaga keladilar.

Boshlang'ich sinflarda hayvonlar haqidagi ertaklar ko'proq o'qitiladi. *«Bo'ringning tabibi bo'lgani haqida ertak» (Anvar Obidjon), «Ko'zacha bilan tulki», «Olapar, Mosh, Musicha»* kabi ertaklar aniq hayotiy hikoyalar tarzida o'qitiladi va tahlil qilinadi.

Ertak matni ustida ishlashda tanlab o'qish, savollarga javob berish, o'quvchilarning o'zlari ertak mazmuniga oid savollar tuzib, javob berishlari, reja tuzish, qayta hikoyalash, ijodiy davom ettirish, ertak aytish, qahramonlarni grafik tasvirlash kabi ish turlaridan foydalaniladi. Bunday ertaklarda hayvonlarning odatlari tahlil qilinadi, ammo ularni kishilar xarakteriga taqqoslash tavsiya qilinmaydi.

Maktab tajribasidan ma'lumki, kichik yoshdagi o'quvchilar ertakdagi hayvonlar gapirmasligini, tulki va turna bir-birinikiga mehmonga bormasligini yaxshi biladilar, ammo ertaklar dunyosini hayotiy hikoya kabi qabul qiladilar. ertakni o'qib tahlil qilganda, barcha ishlar uning mazmunini yaxshi idrok etishga, syujet rivojini, qatnashuvchi personajlarning xatti-harakati, o'zaro munosabatlarini to'g'ri tasavvur etishga yo'naltiriladi. Bunda tanlab o'qish va qayta hikoyalashning ahamiyati katta.

Ertakni tahlil qilishning oxirgi bosqichida *«Ertakda sizga juda yoqqan joyini topib o'qing», «Nima uchun aynan shu joyi yoqqanini ayting», «Hayotingizda ertakdagi voqealarga o'xshash voqealar bo'lganmi?»* kabi savol-topshiriqlar yordamida o'quvchilarning ertak xulosasini tushunishlariga erishiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari hayvonlar haqidagi ertaklardan tashqari, *«Davlat», «Ilm afzal», «Hiylagarning jazosi», «Hunarsiz kishi o'limga yaqin»* kabi maishiy ertaklarni ham o'qiydilar. Bunday ertaklarda xalq o'z hayotini hikoya qiladi, shu sababli o'quvchilar ertakni o'qigach, o'tmishdagi xalq hayotini, o'y-fikrlari va orzu-istaklarini bilib oladilar.

Bunday ertaklarni tahlil qilish badiiy hikoya tarzida uyushtiriladi. Bolalar o'qituvchi rahbarligida ertakda qatnashuvchilarning hulq - atvori, ayrim xatti-

harakatlarini baholaydilar, ularning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini aytadilar va shular asosida ayrim obrazlar haqida xulosalar chiqaradilar, ertak rejasini tuzadilar, ertakni rollarga bo'lib o'qiydilar.

Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o'qishgagina emas, balki uni aytib berishga o'rgatish ham muhimdir. ertak aytish og'zaki nutqni o'stiradi, bolalar nutqini yangi so'z va iboralar bilan boyitadi.

O'quvchilarni 1-sinfdayoq ertak tilidan erkin foydalanishga o'rgatish uchun ertak bilan birinchi tanishtirishda uni o'qituvchi aytib berishi mumkin.

O'quvchi ertak mazmunini o'zlashtirib olgandan so'ng, uning tili ustida ishlashga alohida ahamiyat qaratilishi zarur. Ertak mazmunini qayta hikoyalashda, qahramonlarga tavsif berishda o'quvchilarning o'z nutqida til vositalaridan o'rinli foydalanish talab qilinadi. Til vositalaridan foydalanish uchun talab va vaziyat, ehtiyoj yaratish zarur.

Yuqoridagi barcha fikrlarni hisobga olganda, ertakni o'rganish darslarining qurilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. *O'quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash;*
2. *O'qituvchining ertakni ifodali o'qishi, yod aytib berishi;*
3. *Ertakni o'quvchilar qay darajada idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o'tkazish;*
4. *Ertakni qismlarga bo'lib o'qish va tahlil qilish; undagi ayrim tasviriy vositalar, ma'nodosh so'zlarni topish, lug'at ishi (ayrim so'zlar ma'nosini tushuntirish);*
5. *Ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda o'qish);*
6. *Ertakni so'zlab berish;*
7. *Umumlashtiruvchi suhbat (ertak g'oyasini ochish);*
8. *Ma'lum vazifa bilan ertakni qayta o'qish (ijodiy va mustaqil ishlar);*
9. *Vazifani tekshirish va yakunlash;*
10. *Uyda ertakni o'qib (yoki aytib) berishga tayyorlanish.*

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi.

«Hikoya ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmunini ertakdagidan ortiqroq hayotiydir».

Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalari haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni badiiy asar turi bo'lgan hikoya bilan tanishtirish uning syujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi.

Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. So'roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda dalillar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi.

Hikoyani o'qish darsida o'quvchilar tushunmaydigan so'z va iboralar ma'nosini tushuntirish ham muhim, aks holda ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar.

Hikoyani o'qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish markaziy o'rin egallaydi. Hikoya o'qib bo'lingach, o'quvchilar o'ylashi, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish kerak. O'qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad, hikoya bolalarga yoqqan-yoqmaganligi, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etganini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya syujeti, voqeaning yo'nalishini ochishga, personajlar xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.

Badiiy asarni tahlil qilishda syujetni to'liq tushuntirishga berilib ketib, qahramonlarga tavsif berish, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Ertak janriga xos matnlar jozibadorligi bilan bolani o'ziga tortadi. Lekin, hikoya janri ham hayotiyliigi bilan o'ziga xos. Hikoyada voqealar tez rivojlanib boradi.

Unda inson hayoti, u bilan bog'liq hayotiy lavhalar bayon etiladi. o'quvchilar qahramonlarning xarakteri, ulardagi xususiyatlar bilan qiziqadilar.

Hikoya biror bir davr bilan bog'liq bo'ladi. O'quvchilar qahramonlarning ma'naviyatiga bo'lgan qiziqishlari tufayli hayotning nurli va qorong'i tomonlari xususida muayyan tushunchaga ega bo'la boshlaydilar. Ularda go'zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg'usi hikoyalar bilan tanishish va uni tahlil qilish davomida shakllanib boradi. Hikoya tahlili adabiy tur sifatida o'ziga xos xususiyatlari va vazifasidan kelib chiqib ish ko'rishni taqozo etadi. Undagi har bir so'z, ibora, gap yozuvchining fikrini ifodalashga xizmat qiladi.

Hikoya matni uning mazmunini yoki badiiy xususiyatlarini o'rganishdagina emas, tahlilning ifodali, adabiy, shartli yoki ijodiy o'qish, muammoli usullardan foydalanish uchun ham manba bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda hikoya syujeti, kompozistiyasi, qahramonlarini o'rganish bo'yicha turli tahlillar matn ustida ishlash asosida olib boriladi. Bunda o'quvchining ijodiy faolligi ortadi, ijodiy fikrlash doirasi kengayadi.

Hikoya mazmunini o'zlashtirish bo'yicha matn asosida quyidagicha ishlar amalga oshiriladi:

1. Matn mazmuni yuzasidan o'qituvchi savollariga javob berish;
2. Hikoya matniga berilgan savol-topshiriqlarni bajarish;
3. Hikoya mazmuni yuzasidan o'quvchilarning savollar tuzishi;
4. Hikoya mazmuniga mos rasmlar chizish;
5. Hikoya matnini qismlarga bo'lish;
6. Har bir qismga sarlavha topish;
7. Hikoyaga reja tuzish;
8. Reja asosida qayta hikoyalash (to'liq, qisqartirib va ijodiy qayta hikoyalash)
9. Reja asosida bayon yozish.

Tahlilda o'qilayotgan hikoya matnining tushunarlilik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tushunarlilik deganda yozuvchi yaratgan badiiy olamning o'ziga xosligi, obrazli tasvirning o'quvchi hayotiy tajribasi, bilim darajasiga muvofiqligi nazarda tutiladi.

Hikoyani o'rganishda savollarni, odatda, o'qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o'quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi, asar mazmunini yaxshi tushunish, o'z fikrini izchil bayon qilish malakasini egallash, mazmun va voqealar orasidagi bog'lanishni to'liq esda saqlab qolishda o'quvchilarga yordam beradi.

Hikoyani izohli o'qish darsini quyidagicha reja asosida olib borish mumkin:

1. Hikoyani o'qishga tayyorlash (hikoyadagi kabi odamlar hayoti va davrga xarakteristika berish va boshqa.);
2. Hikoyani o'qish (bunda to'liq va ma'no jihatdan tugal qismni o'qituvchi yoki oldindan tayyorlangan o'quvchi ifodali o'qishi mumkin);
3. Lug'at ustida ishlash;
4. Idrok etishni tekshirish (qatnashuvchilarning xatti-harakatlari, shaxslar va voqealar o'rtasidagi munosabatlar yuzasidan qisqacha suhbat);
5. Hikoyani qayta o'qish (qismlarga bo'lib, rollarga bo'lib o'quvchilarga o'qitish)
6. Hikoyaning har bir bo'limi (qismi) yuzasidan suhbat uyushtirish, hikoya rejasini tuzish;
7. Reja asosida qayta hikoyalash;
8. Hikoya asosida ijodiy va mustaqil ishlar;
9. Hikoyani ifodali o'qishga yoki sahnalashtirishga tayyorlanish (sinfda yoki uyda);
10. Hikoyani ifodali o'qish va ifodali qayta hikoyalash.

She'r - ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solingan, his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutq. She'riy nutqni ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solish vositalari ritm (bir-biriga monand kichik bo'laklarning izchil va bir me'yorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keladigan ohangdosh so'zlar) hisoblanadi.

She'rni o'qiganda kichik yoshdagi o'quvchilar tabiat va jamiyat voqeahodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinflarda she'r tarzida yozilgan hikoyalar, ertaklar, ya'ni she'riy asarlar va lirik she'rlar o'qitiladi.

She'riy hikoyada syujet, ya'ni voqealar tizimi va uning rivoji xarakterlidir. Lirik she'r "biror hayotiy voqea-hodisa ta'sirida insonda tug'ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg'ular orqali turmushni aks ettiradi". Lirik she'rning xususiyati "kishining his-tuyg'uga to'la hayajonli nutqini ta'sirliroq ifodalashda qo'l keladi".

She'rni o'qish darslarida asosiy ish turi ifodali o'qish hisoblanadi. O'quvchi she'rning asosiy mazmunini tushunsagina, uni ifodali o'qiy oladi. She'riy hikoyani tahlil qilishda, asosan, hikoya, ertak, masalni tahlil qilishda qo'llangan ish turlaridan foydalanish mumkin.

Lirik she'rni o'qish va tahlil qilish o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Holbuki, ko'p hollarda she'rga oddiy matn nuqtai nazaridan yondashiladi. Bunday holda she'riy san'at hissiyot bilan bog'liq ekanligi unutiladi, she'r ma'nosining satrlar, so'zlar zaminida yashirin berilishi anglab etilmaydi. Buning oqibatida o'quvchilar she'rdagi obrazlilikning mag'zini chaqa olmaydilar. Vaholanki, har qanday asar zaminidagi yashirin ma'noni o'qish mehnattalab ishdir. Busiz hatto adabiy ta'limning maqsadi ham amalga oshmaydi.

She'riy ohangni his qilmaslik, matn so'zlarini to'la tushunib etmaslik she'r yodlashni zerikarli mashg'ulotga aylantiradi. Ma'nosi anglanmagan matnni yodlash oson kechmaydi. Buni deyarli barcha sinflarda o'rganiladigan "*O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi*" misolida ko'rish mumkin. Ma'lumki, madhiya kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallab maxsus yaratilmaydi. Binobarin, uning matnidagi "hur o'lka", "to abad", "ilmu fan", "shuhrating", "ajdodlar", "mardona ruhi senga yor", "o'chmas iymoni", "istiqlol mash'ali", "tinchlik posboni", "haqsevar ona yurt", "mangu bo'l obod", "jo'sh urgan" kabi ko'pdan-ko'p so'zlar, iboralar o'quvchilarga izohlab tushuntirilmasa, ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Boshlang'ich sinflarda ko'rgazmali ta'limning asosiy shakli she'rni ifodali o'qish hisoblanadi. Lirik she'rni ham o'quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhim. Shuning uchun she'r birinchi marta o'qilganda, hech

qanday tushuntirish berilmaydi. She`r o`quvchilarga qanday ta`sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. O`qituvchi she`rni shunday ifodali o`qishi kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so`z kuchliroq ta`sir etsin. So`ngra she`rni mustaqil o`qish topshiriladi. O`qish oddiy bo`lishi kerak. O`qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandlik, qahr-g`azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga yo`l qo`ymaslik zarur. Bolalar she`rni o`qiganda, she`riy satrga rioya qilishlari kerak, bu jarayonda ularning she`r ritmini buzmasliklariga erishish kerak.

She`r matni ham savollar asosida tahlil qilinadi. Ammo, she`r mazmuni haqida o`quvchilarga ko`p savol berish tavsiya etilmaydi. O`quvchilar she`rning asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilishning o`zi kifoya. Shuni ham aytish kerakki, bolalar hayoti, ularning o`ziga xos fikrlari, his-tuyg`ulari, qiziqishlarini ifodalovchi, shuningdek, zamonamiz qahramonlari, o`zbek xalqi, Vatan himoyasi, xalqimizning qahramonona ishlari haqidagi she`rlar mazmunini to`liqroq tahlil qilish talab etiladi. Bunday she`rlarni o`qishga maxsus tayyorlaniladi: she`r mazmuniga asos bo`lgan tarixiy voqea haqida qisqacha so`zlab beriladi yoki suhbat o`tkaziladi.

Boshlang`ich sinflarda o`rganiladigan ko`pgina she`rlarni tahlil qilib, ifodali o`qish mashq qilingach, ifodali yod aytib berish vazifasi topshiriladi.

She`riy nutq yengil yodlab olinadi, bolada estetik his-tuyg`u uyg`otadi. Kichik yoshdagi o`quvchilar saviyasiga mos bolalarbop ravshan til bilan yozilgan sodda ritmli jarangdor she`rlarni bolalar tez va oson yodlab oladilar.

Kichik yoshdagi o`quvchilarga she`rni qanday yodlash kerakligi o`rgatiladi. Buning uchun o`qituvchi o`quvchilar bilan she`rni teng satrli bir necha qismga bo`ladi. O`quvchilarga har bir satr oxirida pauza (to`xtam) qilish, buning uchun satr oxirida tinish belgisi bo`lishi shart emasligi, ritmik to`xtamda ovozni nuqtadagi kabi pasaytirmaslik lozimligi, bu tugallanmagan fikrni davom ettirishga imkon berishi tushuntiriladi va bo`lingan qismlar navbati bilan yodlatiladi.

She`rni izohli o`qish darsining tuzilishi quyidagicha bo`lishi mumkin:

1) *she`r mazmunini yaxlit idrok etish uchun uni ifodali o`qib berish (birinchi sintez);*

2) *she`rda tasvirlangan payt, hodisa haqida suhbat (analiz);*

3) *she`rni ifodali o`qishni mashq qilish (ikkinchi sintez);*

4) *she`rni yod aytib berishga tayyorlanish.*

5) *epik (voqeiy) she`rlar ustida ishlash.*

Topishmoqlar narsa yoki hodisalarning ataylab yashirilgan belgisi, shakli, xatti-harakati, holati va vazifasini boshqa narsa yoki hodisalarga qiyoslash asosida topishga asoslangan she`riy yoki nasriy tuzilishdagi savol va topshiriqlardir. Topishmoqlar xalq turmushi bilan chambarchas bog`liq holda yaratiladi. Ularning zaminida kishilarning qadimiy e`tiqod va tasavvurlari, olamni bilish va idrok etishga bo`lgan intilishlari yotadi.

Topishmoqda yashirilgan narsalar uning javobi hisoblanadi. Topishmoqning javobini topish uchun topishmoq matnini yaxshilab o`qish, nimaga ishora qilinayotganligini fahmlash, topishmoqning asosiy xususiyat va belgilari aynan nimaga qaratilganligini taxmin qilish bilan ham topishga harakat qilish kerak.

Topishmoq o`quvchilarni topqirlik va hozirjavoblikka o`rgatadi. SHu sababli xalq og`zaki ijodining bu janridan darsliklarda ham keng qo`llanilgan. 1-2-sinf «O`qish kitobi» da topishmoqlar ko`proq har bir matn ostida keltirilgan. Bundan ko`zlangan maqsad matn mazmunini topishmoqlar asosida ham o`zlashtirilishiga erishishdir. Masalan, 1-sinf «O`qish kitobi» da «Kitobga mehr» matni ostida «Qat-qat qatlama, Aqling bo`lsa tashlama» topishmog`i keltirilgan va mavzuga juda mos tanlangan. Topishmoqlar bunday shaklda berilganda ularning javobi oson topiladi. 1-4-sinf o`qish darsliklarida «Topishmoqlar» mavzusi ostida har xil topishmoqlar ham berilgan bo`lib, ular o`quvchilarning topqirligini yanada oshiradi, tafakkurini o`stiradi. Darsliklarda topishmoq javoblari ostiga yozib qo`yilgan yoki rasmlar orqali berilgan. 3-4-sinflarga o`tgach esa javoblar qayd etilmagan. Buning sababi shuki, bu davrga kelib o`quvchilar topishmoqlar ustida ishlash ko`nikmalarini hosil qilgan bo`ladi.

Biz yuqoridagi fikrlardan keldib chiqib, «Mehnat-baxt keltirar» bo`limiga kiritilgan asarlarni o`rganish darslariga to`xtalishni ham o`rinli deb bildik.

Mavzu: Odam bo`laman. Anvar Obidjon.

Darsning maqsadi:

- 1, O`zbek bolalar shoiri Anvar Obidjonning «Odam bo`laman» she`rini o`qish.
2. O`quvchilarni mehnatsevar qilib tarbiyalash.
3. Mehnatning ahamiyati va qadrini tushuntirish.
- 4.O`quvchilarni bilim, ko`nikma va malakalarini rivojlantirish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning uslubi: aralash, ko`rgazmali.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, «Sirli kataklar» o`yini, maqollar.

I. Darsni tashkil etish. Uyga berilgan vazifani so`rab baholash. O`tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o`tkazish.

II. «Sirli kataklar» o'yini, maqollar orqali oldingi darsni so'rash va baholash.

O'quvchilarga mehnat haqidagi maqollar aytiriladi. Ular aytgan maqolarning mazmunini va kitobda berilgan mehnat haqidagi maqollarning mohiyatini yoritish. Mehnat haqida suhbat uyushtirish va sirli katakchalar o'yinini o'ynash. Sirli katakchalarda berkitilgan mehnat haqidagi hikmatni o'quvchilarga toptirish. Bunda o'quvchilar bittadan harf aytadilar va bu harf yashiringan hikmatda mavjud bo'lsa, ochiladi (xuddi «Mo"jizalar maydonchasi» o'yinidagidek). Masalan:

Yashiringan hikmat: Mehnat qilgan yetar murodga!

III. Yangi darsni mehnat haqidagi suhbatga ulagan holda o'tish.

Buning uchun o'quvchilar bilan quyidagi tarzda savol-javob o'tkazib olinadi:

1. O'quvchilarning Vatan, ona-Vatan oldidagi vazifalari nimalardan iborat?
2. Kelajakda orzuga erishish uchun qanday mehnat qilish kerak?
3. Mehnat, kitob va hunar haqida maqollar ayting.

Mana, bolajonlar, biz siz bilan mehnat haqida suhbatlashdik. Inson umri davomida qancha ko'p mehnat qilsa, shuncha obro'-e'tiborga, baxtga erishishi haqida o'tgan darslarimizda ham keng to'xtalgan edik. Bugun biz siz bilan o'zbek bolalar shoiri Anvar Obidjonning «Odam bo'laman» she'ri bilan tanishamiz. Dastlab she'r ifodali o'qib beriladi. So'ng o'quvchilarga birma-bir ifodali o'qitiriladi. Keyin o'qituvchi she'r mazmunini rasmlardan keng foydalanib so'zlab beradi. Shu she'rni o'quvchilar qay darajada tushunganliklarini aniqlash maqsadida savol-javoblar asosida tahlil qilinadi:

1. She'r qahramoni kelajakda kim bo'lmoqchi?
2. She'rda qaysi kasblar haqida to'xtalangan va fikr yuritilgan?
3. Siz kelajakda kim bo'lmoqchisiz?

Kitobda berilgan topishmoqlarga to'xtalib, uning javobini topish.

IV. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholab, e'lon qilish.

V. Uyga she'rni yod olish, har bir o'quvchi bir kun davomida qilgan ishi haqida daftarga yozib kelishni topshirib, darsga yakun yasash.

«Mehnat-baxt keltirar» bo'limini yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etib olib borish ham bo'lim materiallarini o'quvchilar tomonidan chuqur o'zlashtirilishiga sabab bo'ladi. Jumladan, darsda biz «Aqliy hujum», «Taprimoqlar», «Zinama-zina», «BHB» kabi usullardan foydalanib, bo'lim materiallari bilan o'quvchilarni tanishtirib, ularni kasb-hunarga yo'naltirishimiz mumkin. Masalan, «Aqliy hujum» usuli xususida to'xtalsak, bu usul ham mavzuni o'quvchilar tomonidan to'liq o'zlashtirilishiga sabab bo'ladi, ularni aqlan charxlanishiga ham sabab bo'ladi.

“AQLIY HUJUM”.

“Aqliy hujum” metodining mohiyati jamoa hamkorligi asosida muammoni yechish jarayonlarini vaqt bo'yicha bir qancha bosqichlarga (g'oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqish) ajratishdan iborat.

Dars jarayonida aqliy hujumdan maqsadli foydalanish ijodiy, nostandart tafakkurlashni rivojlantirish garovi hisoblanadi. “Aqliy hujum”ni uyushtirish bir muncha sodda bo'lib, undan ta'lim mazmunini o'zgartirish jarayonida foydalanish bilan birgalikda ishlab chiqarish muammolarining yechimini topishda ham juda qo'l keladi. Dastlab guruh yig'iladi va ular oldiga muammo qo'yiladi. Bu muammo echimi to'g'risida barcha ishtirokchilar o'z fikrlarini bildiradilar. Bu bosqichda hech kimning o'zga kishi g'oyalariga hujum qilishi yoki baholashiga haqqi yo'q. Demak, “aqliy hujum” yo'li bilan qisqa minutlarda o'nlab g'oyalarni yuzaga chiqish imkoniyatlari mavjud bo'ladi. Aslini olganda g'oyalar sonini qo'lga kiritish asosiy maqsad emas, ular muammo echimini oqilona ishlab chiqish uchungina asos bo'ladilar. Bu metod shartlaridan biri hech qanday tashqi ta'sirsiz qatnashuvchilarning har biri faol ishtirokchi bo'lishi kerak. Bildirilgan g'oyalarning besh yoki oltitasigina asosiy hisoblanib muammo echimini topishga salohiyatli imkoniyatlar yaratadi.

Shunday qilib, “aqliy hujum” qoidalarini quyidagicha belgilash mumkin:

- olg'a surilgan g'oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g'oyalar qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi;
- istalgan g'oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi;
- muammo yechimidan uzoq g'oyalar ham qo'llab-quvvatlanadi;
- barcha g'oyalar yoki ularning asosiy mag'zi (farazlari) qayd etish yo'li bilan yozib olinadi;
- “hujum”ni o'tkazish vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;
- beriladigan savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko'zda tutilishi kerak.

VAZIFASI. “Aqliy hujum” qiyin vaziyatlardan qutulish choralarini topishga, muammoni ko'rish chegarasini kengaytirishga, fikrlash bir xilliligini

yo'qotishga va keng doirada tafakkurlashga imkon beradi. eng asosiysi, muammoni echish jarayonida kurashish muhitidan ijodiy hamkorlik kayfiyatiga o'tiladi va guruh (sinf) yanada jipslashadi.

OBJEKTI. qo'llanish maqsadiga ko'ra bu metod universal hisoblanib tadqiqotchilikda (yangi muammoni echishga imkon yaratadi), o'qitish jarayonida (o'quv materiallarini tezkor o'zlashtirishga qaratiladi), rivojlantirishda (o'z-o'zini bir muncha samarali boshqarish asosida faol fikrlashni shakllantiradi) asqotadi.

QO'LLANISH USULI. "Aqliy hujum" ishtirokchilari oldiga qo'yilgan muammo bo'yicha har qanday mulohaza va takliflarni bildirishlari mumkin. Aytilgan fikrlar yozib borildi va ularning mualliflari o'z fikrlarini qaytadan xotirasida tiklash imkoniyatiga ega bo'ldi. Metod samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflandi va hujum davomida ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. Aqliy hujum tugagach, muhimlik jihatiga ko'ra eng yaxshi takliflar generatsiyalanadi va muammoni echish uchun zarurlari tanlanadi.

Izoh: Hurmatli kitobxon, mana, amerikacha "aqliy hujum" metodi bilan qisman tanishdingiz (siz, ehtimol, oldindan tanishdirsiz). Aytmoqchi bo'lgan fikrimiz inkor va ta'kid xususida: **bu metod mualliflari bizning ajdodlarimizdir.** Hali Amerika kashf etilmagan bir davrda o'z aql mash'alasi bilan dunyoni yoritgan qomusiy olimlarimizni (Ahmad al Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va boshqa) olasizmi, yoki etti iqlimni zabt etgan shohu-sultonlarimizni olasizmi, ular o'z muammolarini echishda ana shu metoddan keng foydalanishgan. Bobokalonlarimiz bu metodni boshqacha nomlashgan, ya'ni: **"kengash", "mashvarat", "maslahat"** deb atashgan. Misol uchun, Sohibqiron Amir Temur saltanat oldida turgan muammolarni echishda mashvarat chaqirib barcha saroy ahlining, vaziru-ulamolarning, farzandlarining fikrlarini diqqat bilan eshitgan va ular asosida yagona hukm chiqargan. Bu holatlar ko'proq harbiy yurish oldidan chaqirilgan mashvaratlarda namoyon bo'ladi. "Agar (g'anim ustiga) lashkar tortmoqchi bo'lsam, urush-yarashdan o'rtaga so'z tashlab, amirlarimning bu ikkovidan qay biriga moyilligini bilishga intilardim. Agar yarashdan so'z ochsalar, buning foydasini urush ziyoniga solishtirib ko'rardim, agar urushga moyil

bo'lsalar, uning naf va foydasini yarash ziyoniga taqqoslab ko'rardim, qaysi biri foydaliroq bo'lsa, shuni ixtiyor qilardim" (28). Bugun ana shular haqida o'ygatilib, "g'arb sharqdan o'rgangan"ligiga yuz foiz ishonch hosil qilamiz va yana bir karra yaratganga iymon keltiramiz.

Umuman, olganda har bir bo'lim materiallarini qiziqarli tarzda tashkil etib olib borish ham o'quvchilarni mavzuni to'liq tushunishlariga, ularni kelajakda yaxshi kasb egasi bo'lib yetishishlariga, yana ham aniqrog'i, biror bir kasbga yo'naltirilishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun darsni har bir o'qituvchi qiziqarli tarzda tashkil etib olib borishi shart.

Xulosa.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 2013-yil 6-dekabr kuni Konstitutsiyamiz qabul qilingan kunning 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishida qilgan ma'ruzalarida ilgari surgan quyidagi fikrlarni ilgari surdi:

"Bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishidagi eng asosiy davr – bu boshlang'ich sinf davridir. Hammamiz bilamizki, sobiq tuzum sharoitida bu masalaga, afsuski, yetarlicha ahamiyat berilmas edi. Quyi sinflarda dars berish asosan o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan muallimlarga topshirib qo'yilgan edi. Boshlang'ich ta'limning yosh avlod hayotidagi roli va ahamiyatini hisobga olgan holda, bunday nomaqbul holatga butunlay barham berildi va bu vazifani bugungi kunda oliy ma'lumotli, yuksak professional mahoratga ega bo'lgan pedagog kadrlar bajarmoqda.

Qabul qilinadigan dasturda boshlang'ich ta'limning sifatini oshirish, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarni takomillashtirish, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish masalalari o'z ifodasini topishi kerak".

Yurtboshimiz tomonidan ushbu ma'ruza jarayonida yana 2014-yilning nomlanish masalasiga keng to'xtalinib, "Sog'lom bola yili" deb e'lon qilishni taklif etilgan.

“Endi sizlar bilan kirib kelayotgan yangi-2014-yilga qanday nom berish haqida maslahatlashib, fikrlashib olishimiz kerak.

Azal-azaldan har qaysi ota-ona o'z bolasining sog'lom va barkamol bo'lishini istaydi. Shunday farzandni voyaga yetkazish, uning hayotda munosib o'rin egallashiga erishish – ota-onaning eng ulug', eng muqaddas orzusi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Biz sog'lom deganda, nafaqat jismoniy, balki ma'naviy jihatdan ham sog'lom bolani o'zimizga tasavvur etamiz.

Mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab yurtimizda sog'lom ona-sog'lom bola masalasi davlat siyosatining usutuvor yo'nalishiga aylangani, keng ko'lamli umummilliy dasturlarimiz doirasida amalga oshirayotgan ulkan ishlarimiz jahon miqyosida ham tan olingani sizlarga yaxshi ma'lum.

Ayni vaqtda bugungi shiddatli zamon, hayotning o'zi yosh avlod tarbiyasi borasida oldimizga yangi-yangi, o'ta muhim va dolzarb vazifalarni qo'ymoqda.

Ana shularning barchasini hisobga olgan holda, har tomonlama sog'lom avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarimizni izchil davom ettirish va yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida men kirib kelayotgan yangi-2014-yilni mamlakatimizda “Sog'lom bola yili” deb e'lon qilishini taklif etaman”□, - deb yurtboshimiz I.A.Karimov o'zlarining «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» asarlarida ta'kidlab o'tganlaridek, boshlang'ich sinf o'qituvchilari ilk maktabga qadam qo'ygan bolani savodga, ya'ni o'qish va yozishga o'rgatadilar. Bunda biz “Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarni kasb yo'naltirish” mavzusida ish olib borayotgan kurs ishimizdagi alohida ahamiyatga ega bo'lmish bo'lim materiallari bilan o'quvchilarni yaqindan tanishtirish, bu xususida ularning o'zlarining mustaqil mushohada yuritishlariga imkon yaratishning o'zni kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish-yorug` kelajagimizning asosiy omilidir // Xalq so`zi, 2013-yil, 7-dekabr.
2. Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.- Toshkent: O`zbekiston, 2011.- 432 b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma`naviyat, 2008.- 176 b.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi (to`plam). – Toshkent, 2000.-64 b.
5. Abdullayeva Q., Rahmonbekova S. 2-sinfda o`qish darslari: O`qituvchilar uchun metodik qo`llanma. – Toshkent: O`qituvchi, 2004. – 128 b.
6. Azizxo`jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - Toshkent, 2003.- 176 b.
7. Azizxo`jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat: O`quv qo`llanma. – Toshkent: Adabiyot jamg`armasi, 2006.
8. Matjon S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. – Toshkent: O`qituvchi, 2000.- 198 b.
9. Matchonov S., Shojalilov A., G`ulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z. O`qish kitobi: 4-sinf uchun darslik. - Toshkent: O`qituvchi, 2011. – 240 b.

10. Matchonov S., G`ulomova X., Dolimov Z. O`qish kitobi: 4-sinfda o`qish darslari: O`qituvchi kitobi.- Toshkent: Yagiyul poligraf servise, 2007.- 192 b.

11. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o`qitish metodikasi.- T.: Noshir, 2009.- 352 b.

12. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – 172 b.

13. Uzviylashtirilgan Davlat ta`lim standarti va o`quv dasturi.- Toshkent, 2010.- 138 b.

14. Umarova M. O`qish kitobi: 3-sinf uchun darslik.- T.: O`qituvchi, 2012.- 224 b.

15. G`affarova T. O`qish kitobi: 2-sinf uchun darslik.- T.: Sharq, 2012.- 176 b.

Internet materiallari.

1. WWW. referat. uz.

2. WWW. rambler. literature. ru.

3. <http://www.gov.uz/uz/year/> O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014- yil 19- fevraldagi PQ-2133-son qarori

4.<http://daryo.uz/2014/03/04/soglom-bola-yili-davlat-dasturi>